

**OLIJ TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJTIMOIJ MAS'ULIJATINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

**Jozilov Azamat Avazovich**

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti*

*Qo'shinlar kundalik faoliyati va qo'shinlarni boshqarish kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari aytib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *oliy harbiy ta'lim muhiti, kursant, ijtimoiylashuv, sotsiologik tadqiq qilish.*

Pedagogika fani oldida talabalarni moslashuvchan, samarali bo'lishiga maksimal darajada yordam berish va malakali mutaxassis sifatida, balki fuqaro, ziyoli, ma'naviy boy inson sifatida ham tayyorlash vazifasi turibdi. Mamlakatimizda rivojlangan ijtimoiy mas'uliyatli zamonaviy bilim, kasbni egallagan yetuk raqobatbardosh kadrlarni tayorlashda ularning shaxsiy sifatleri, tafakkuri, bilimi, ko'nikma va malakalari alohida o'rin tutadi. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim talabalarida ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishda avvalo Vatanga xizmat qilish, Vatan oldidagi burchi va mas'uliyatini bajarishda o'z-bilim va tafakkurini rivojlantirish masalasi alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh negizida yosh-avlodni ya'ni chaqiriqqacha harbiy ta'lim talabalarda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri ekanligini belgilab olish davrning o'zi taqazo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ko'lamli negizida, yurtimiz buguni va ertasi bo'lgan – kelajak-avlod kadrlarini tayyorlashda ularning mas'uliyatini oshirish masalasi eng muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida yosh-avlod ta'lim va tarbiyasi, ularning mas'uliyatini oshirishga bo'lgan ehtiyojga e'tibor qaratib, "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim" deb ta'kidladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda kasbiy-pedagogik faoliyatda kompetentlikni rivojlantirish kontekstini shakllantirish ulfrning quyidagilarni o'zlashtirishi bilan ajralib turadi: fan tarmoqlariga oid tushunchalar asosi (bilimlar va o'rab turgan voqelikni tushunish shakllantiriladi); o'z-

o'zini rivojlantirish, xissiy emotsional-qadriyat asosida (talaba-shaxsining atrof-dagi olam va boshqa odamlar ga munosabatlari shakllantiriladi); tizimlashtirilgan asos sifatida (jamoani o'rab turgan voqelik ob'yektlari bilan ishlay olish malakalari shakllanadi).

Shu sababli, talaba pedagogik shart-sharoitlar natijasida egallangan bilimlarining quyidagi jihatlari muhim o'rin egallaydi: ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan – qarorlarni bosqichma-boqich qabul qilish imkoniyati, ular vositasida shaxs o'zi afzal ko'rgan narsalari va jamiyatda mehnat taqsimoti tizimining ehtiyojlari orasidagi muvozanatni shakllantiradi; individual-shaxsiy nuqtai nazardan – hayotning individual tarzi shakllanadi, kasbiy faoliyat uning bir qismi hisoblanadi; jamiyatshunoslik nuqtai nazaridan – jamiyat shaxs oldiga qo'yadigan vazifalarni yechish qobiliyati shakllantiriladi.

Demak, talabalar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlanishida quyidagi pedagogik faoliyat funksiyalari muhim o'rin tutadi:

qidirish qobiliyati:

- turli ma'lumotlar bazalarini so'rash; atrof-dagilardan so'rash; ekspertdan maslahat olish; ma'lumotlarni olish;

- hujjatlar bilan ishlash va ularni tavsiflash;

o'rganish qobiliyati:

- tajribadan foyda olish;

- bilimlarning o'zaro aloqadorligini tashkil qilish va ularni tizimlashtirish; o'z o'qitish usullari tizimini tashkil qilish;

- yuzaga keladigan muammolarni ijodiy tarzda yechish;

- mustaqil ta'lim bilan shug'ullanish;

- o'ylash fikrlash qobiliyati: o'tgan avvalgi va joriy hodisalar orasida o'zaro aloqadorlikni tashkil qilish;

- jamiyatlarimizning rivojlanish taraqqiyotida ijobiy munosabatda bo'lish;

- ishonchsizlik va murakkablik qiyinchilikka qarshi turish; muhokamada o'z nuqtai nazarini, shaxsiy fikrini bildirishi, ta'lim va ish jaryonida siyosiy va iqtisodiy muhitning muhimligini ko'ra bilishi, salomatlik, iste'mol, hamda atrof muhit bilan bog'liqdir;

faoliyatga qo'shilish qobiliyati:

- loyihaga qo'shilish; guruh yoki jamoaga kirishish va o'z hissasini qo'shish;

- birdamlikni namoyish qilish;

- o'z ishini tashkil qilish; hisoblash va modellashtirish uskunalaridan foydalanish;

- javobgarlikni his etish;

hamkorlik qilish qobiliyati:

- guruhda hamkorlik qilish va ishlash;

- qarorlar qabul qilish;

- kelishmovchiliklar, ixtiloflar va nizolarni hal qilish;

- oqilona yon berish asosida kelishish;

- shartnomalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni bajarish;
- moslashish qobiliyati: axborot va kommunikatsiyalarni o'zlashtirishning yangi texnologiyalaridan foydalanish; tez o'zgarishlar nazdida moslashuvchanlikni isbot qilish;
- qiyinchiliklar oldida qat'iyat va matonatni namoyish qilish;
- yangi yechimlar topish va aynan shular bugungi kunda va kelajakda ijtimoiy mas'ul xulq atvorning asosini tashkil etadi.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish har qanday ta'lim muassasasi talabalarida o'quv-tarbiya jarayoniga mas'uliyat bilan yondashish va tayyorlanganlik sifati aksariyat hollarda insonning ta'lim olishi va tarbiyalashi tufayli olingan bilimlar, tajriba, qadriyatlarga asoslangan bilim va yuzaga keladigan vaziyat orasidagi tegishli aloqalar o'rnatishga tayyorligi, muayyan muammonu hal qilishning mos usullarini topishga bo'lgan qobiliyat sifatida umumiy talqin qilinadi.

Ta'limda pedagogik modellar asosida o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish asosida umumiy g'oyani ishlab chiqish, ta'lim maqsadlarni asoslash, qadriyatlarni tanlab olish va ularga erishishning asosiy yo'llarini aniqlash muhim o'rin tutadi. Shuningdek, ta'limda modellashtirish (modelni tuzish) o'rganilayotgan hodisa yoki jarayonning mohiyat jihatlari, xislatlari, asosiy komponentlari, aloqalari va funksiyalarini tegishli adekvat tarzda aks ettirish, ularning kelgusida ijobiy rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlarni asoslash imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60 son. 2022-yil 28-yanvar. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 fevraldagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4166-son qarori.